# Xalq so‘zi

O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan • WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz • 2024-yil 15-avgust, № 164 (8787) Payshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


# BIR BO‘LSAK – YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK – VATANMIZ!

## KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA IJTIMOIY HIMOYA TIZIMI TAKOMILLASHTIRILADI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev 14-avgust kuni kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish chora-tadbirlariga oid taqdimot bilan tanishdi.**

Har bir mamlakat rivojlanish jarayonida kambag‘allikni qisqartirish bosqichidan o‘tadi. O‘zbekiston ham 2020-yilda aholining muayyan qismi kambag‘al ekanini tan olib, ularga madad berishga kirishdi. Moliyaviy-tashkiliy choralar ko‘rilib, tizim joriy qilindi. Bu o‘z samarasini berib, uzoq yillar og‘ir vaziyatda bo‘lgan 3 milliondan ziyod odamlarning sharoiti yaxshilandi. Kambag‘allik darajasi 17 foizdan 11 foizga tushdi.

Kelgusi uch yilda kambag‘allik darajasini 11 foizdan 7 foizga qisqartirish maqsad qilingan. Hozirgacha bo‘lgan tizim bilan natijadorlikni oshirish qiyin. Kambag‘al oilani tanlashda aniqlik, ularni bu holatdan olib chiqish va mablag‘ ajratishda yaxlitlik yetishmaydi.

Shu yil 12-iyul kuni Farg‘ona viloyatida o‘tgan yig‘ilishda davlatimiz rahbari bu borada yangicha yondashuvlar kerakligi, endi kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy himoya bir tizimda bo‘lishini aytgan edi.

Taqdimotda ushbu ikki sohani mutanosib rivojlantirish bo‘yicha takliflar ko‘rib chiqildi.

Tahlillardan kelib chiqib, kambag‘allikni aniqlash mezonlari va manzilli ro‘yxati shakllantiriladi. Jumladan, unga “Ijtimoiy himoya yagona reestri”dagi hamda kambag‘allikka tushish xavfi yuqori bo‘lganlar kiritiladi. Bunday oilalar “mahalla yettiligi” va faollari tomonidan ovoz berish yo‘li bilan tasdiqlanadi. Kambag‘allikdan chiqarishga qaratilgan barcha ijtimoiy xizmat va yordamlar “Inson” markazlari tomonidan amalga oshiriladi.

Kambag‘allik omillarini o‘rganish uchun ijtimoiy himoya va bandlik masalalarida 8 ta yo‘nalishda yagona savolnoma ishlab chiqiladi. Shu asosda oilalarning imkoniyatlari baholanib, 3 toifaga ajratiladi. Har bir oilaga individual yondashilib, “oyoqqa turishi”ga ko‘maklashiladi.

Shu taxlit kambag‘allik darajasi yuqori bo‘lgan mahallalar ro‘yxati ham shakllantiriladi. Ijtimoiy himoya milliy agentligi va hokimliklar tomonidan har yili 50 ta mahalla tanlab olinib, ular kambag‘allik va ishsizlikdan xoli hududga aylantirib boriladi.

Bugungi kunda hokim yordamchilariga 20 dan ortiq vazifalar yuklatilgan. Shu sababli kambag‘allikni qisqartirish masalasi ikkilamchi darajaga tushib qolgan. Endi hokim yordamchilarining faoliyati qayta ko‘rib chiqilib, asosiy e’tibor kambag‘allikni qisqartirish va ular bandligini ta’minlashga qaratiladi.

Har yili kambag‘allikni qisqartirishga 14 trillion so‘m yo‘naltirilmoqda. Lekin bu mablag‘ 40 turdagi moliyaviy vositalar orqali 10 ga yaqin idoralar tomonidan berilmoqda, yagona yondashuv yo‘q. Shu bois bu tizim ham o‘zgartiriladi. Mablag‘lar hudud, tuman va mahallalar kesimida kambag‘al oilalar sonidan kelib chiqib, mos ravishda agentlik va hokimliklar tomonidan taqsimlanadi. Bunda mablag‘lar, birinchi navbatda, oilani kambag‘allikdan chiqarishga yo‘naltiriladi.

Kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan dasturlar ijrosi bo‘yicha 3 bosqichda – mahalla va tuman, viloyat hamda respublika darajasida monitoring tashkil qilinadi. Bu borada jamoatchilik nazorati kuchaytiriladi.

Ish o‘rinlarini zaxiralash amaliyoti o‘rniga ehtiyojmand kishilarni ishga olgan tadbirkorlar uchun soliq imtiyozlari joriy qilinadi. Bo‘sh ish o‘rinlari to‘liq raqamlashtiriladi. Buyurtmachini kasanachi va frilanserga bog‘laydigan onlayn platforma tashkil qilinadi. “Ishga marhamat” monomarkazlarida kambag‘al fuqarolarni xizmatlar sohasida zamonaviy kasblarga o‘rgatish yo‘lga qo‘yiladi.

– Oxirgi yillarda to‘plangan tajriba va odamlarning ehtiyojidan xulosa qilib, kambag‘allikni qisqartirishni yangi bosqichga olib chiqish kerak. Ehtiyojmand insonlarning xohishi va imkoniyatini qo‘llab-quvvatlab, hayotga, jamiyatga olib kirish zarur. Umuman, har qanday ijtimoiy yordam pirovardida bandlikka bog‘lanishi shart, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Mutasaddilarga ijtimoiy ko‘maklarning manzilliligi va shaffofligini ta’minlash, bandlik va kichik tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

**O‘zA.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
FARMONI

## TADBIRKORLAR KUNI MUNOSABATI BILAN SOHA VAKILLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish, sohada yangi va istiqbolli loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, yurtimizning iqtisodiy qudrati va eksport salohiyatini yuksaltirishga qo‘shayotgan katta hissasi, o‘zining tashabbuskorligi, zamonaviy bilim va tajribasini namoyon etib, investitsiyalarni jalb qilish, import o‘rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko‘rsatishni yanada kengaytirish, aholi bandligi va farovonligini ta’minlash yo‘lida alohida jonbozlik ko‘rsatib kelayotgani, shuningdek, ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun quyidagilar mukofotlansin:

### “Mehnat shuhrati” ordeni bilan

**Achilov Nurmuxamed Nurullayevich** – G‘ijduvon tumanidagi “Parvoz Humo Ravnaq Trans” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Buxoro viloyati

**Turdaliyev Boxirjon Ilxomovich** – Beshariq tumanidagi “Vodiy naslli parranda” fermer xo‘jaligi boshlig‘i, Farg‘ona viloyati

### “Do‘stlik” ordeni bilan

**Abdullayev Abduvayid Tolibjonovich** – Asaka tumanidagi “Asakatekstil” mas’uliyati cheklangan jamiyati kuzatuv kengashi raisi, Andijon viloyati

**Arabbayev Xusan Jamalitdinovich** – Chinoz tumanidagi “Yulduz” chorvachilik fermer xo‘jaligi boshlig‘i, Toshkent viloyati

**Galperin Leonid Vladimirovich** – “Toshkent quvur zavodi” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischilar kengashi raisi, Toshkent shahri

**Daniyev Abdushukur Jaylovovich** – Muborak tumanidagi “Shodlik paxta-don klasteri” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Qashqadaryo viloyati

**Karimov Akmal Akbarovich** – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi “Krantas” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Toshkent shahri

**Kostoyev Magomed Ezmanovich** – Rishton tumanidagi “Kosto Line Holding” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Farg‘ona viloyati

**Mamurov Sharifjon Raximovich** – Buxoro tumanidagi “LKW-Service” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Buxoro viloyati

**Muminov Abdulxamid Maxmudjanovich** – Davlatobod tumanidagi “Saodat sanoat servis” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Namangan viloyati

**Pardayev Baxodirjon Abdimalikovich** – Oqoltin tumanidagi “Zanjirli shamshir” tuyaqushchilik fermer xo‘jaligi boshlig‘i, Sirdaryo viloyati

**Pardayev Jamshid Muzaffarovich** – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti ta’sischisi, Surxondaryo viloyati

**Rustamov Ilxom Aslamovich** – Samarqand shahridagi “Ahmadbek Qurilish Trio” mas’uliyati cheklangan jamiyati bosh direktori, Samarqand viloyati

**Uzakbayev Adilbay Azatbayevich** – Nukus tumanidagi “Qareken Sazani” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

**Xaitov Akbarali Kilichevich** – Paxtakor tumanidagi “Best Gold Crown” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Jizzax viloyati

**(Davomi 2-betda).**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
FARMOYISHI

## “FAOL TADBIRKOR” KO‘KRAK NISHONI BILAN TAQDIRLASH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimiz iqtisodiyotida barqaror o‘sish sur’atlarini ta’minlash, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, tadbirkorlik rivojini yangi bosqichga ko‘tarish, yurtimizning ishlab chiqarish va eksport salohiyatini yuksaltirish borasidagi katta xizmatlari, sohaga ilg‘or innovatsion, “yashil” va raqamli texnologiyalarni joriy etish, sarmoyalar hajmini ko‘paytirish, ish o‘rinlari yaratishga qo‘shgan munosib hissasi, shuningdek, biznesda erishayotgan salmoqli natijalari hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun quyidagilar “Faol tadbirkor” ko‘krak nishoni bilan taqdirlansin:

**Allambergenov Sharipbay Orazimbetovich** – Taxiatosh tumanidagi “Gulsara pillachi” fermer xo‘jaligi boshlig‘i, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

**Bazarbayeva Gulbaxar Utebayevna** – Nukus shahridagi “Qanli Xantore” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

**Jarkinbayev Salavat Mirzakulovich** – Ellikqal’a tumanidagi “Bo‘ston Silk” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

**Sultanov Telman Razumovich** – Ellikqal’a tumanidagi “Ro‘zimboy bobo” ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligi boshlig‘i, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

**Turekeev Azamat Utebayevich** – Chimboy tumanidagi yakka tartibdagi tadbirkor, hunarmand-o‘tov yasovchi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

**(Davomi 2-betda).**

**Oliy Majlis Senatida**

## PARLAMENT YUQORI PALATASINING ELLIK BESHINCHI YALPI MAJLISINI CHAQIRISH SANASI MA’LUM QILINDI



*Oliy Majlis Senati Kengashining navbatdagi majlisi bo‘lib o‘tdi. Uni Senat Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi. Unda Senatning ellik beshinchi yalpi majlisini 2024-yil 15-avgust kuni chaqirish to‘g‘risida qaror qabul qilindi.*

Ta’kidlanganidek, videokonferensaloqa tizimidan foydalangan holda o‘tkaziladigan yalpi majlisda qator masalalarni muhokama qilish nazarda tutilgan.

“O‘zbekiston Respublikasining Tadbirkorlik kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qonun, “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun, “Yo‘l harakati xavfsizligi tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi hamda “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlar shular jumlasidandir.

Shuningdek, kun tartibidan “Ijtimoiy xizmatlar va yordam ko‘rsatish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun, bir qator xalqaro hujjatlarga qo‘shilish va Xalqaro mehnat tashkilotining konvensiyasini ratifikatsiya qilish to‘g‘risidagi qonunlar ham o‘rin olgan.

Navbatdagi yalpi majlisda O‘zbekiston uchun ustuvor bo‘lgan xalqaro reyting va indekslar ro‘yxatini tasdiqlash masalasini ko‘rib chiqish, O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligining suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, sohaning boshqarish mexanizmlarini hamda qonunchilik bazasini takomillashtirishga doir chora-tadbirlar ijrosi bo‘yicha axborotini eshitish ham rejalashtirilmoqda.

Yalpi majlisda Oliy Majlis Senati Kengashining qarorlarini tasdiqlash masalasi ham ko‘rib chiqiladi.

**“Xalq so‘zi”.**

### O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining ellik beshinchi yalpi majlisi ochilishi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining ellik beshinchi yalpi majlisi 2024-yil 15-avgust kuni soat 10:00 da Toshkent shahrida Oliy Majlis Senatining majlislar zalida o‘z ishini boshlaydi.

Yalpi majlisni videokonferensaloqa tarzida o‘tkazish rejalashtirilgan.

Yalpi majlis Senatning “YouTube” tarmog‘idagi sahifasi orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoritib boriladi.

**Biz va jahon**



## BMT BOSH ASSAMBLEYASI O‘ZBEKISTON TASHABBUSINI BIR OVOZDAN QO‘LLAB-QUVVATLADI

***13-avgust kuni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nyu-Yorkdagi bosh qarorgohida Bosh Assambleya tomonidan “Degradatsiyaga uchragan va qurg‘oq hududlarda barqaror o‘rmonzorlarni barpo etish, daraxt ekish va ularni targ‘ib qilish – ekologik muammolarga qarshi kurashning samarali yechimi” rezolyutsiyasi bir ovozdan qabul qilindi.***

Mazkur rezolyutsiya O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan mamlakatimizda hayotga tatbiq etilayotgan, shahar va qishloq hududlarini ko‘kalamzorlashtirish orqali bioxilmaxillikni saqlash va tiklashga qaratilgan “Yashil makon” umummilliy dasturi konsepsiyasi asosida ishlab chiqilgan.

Hujjatda davlatimiz rahbari tomonidan Bosh Assambleyaning 78-sessiyasi va BMTning Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha 28-konferensiyasida iqlim o‘zgarishiga va yerlarning degradatsiyasiga qarshi samarali kurashish bo‘yicha bildirgan asosiy takliflari o‘z ifodasini topgan.

Rezolyutsiyaga 100 dan ortiq a’zo davlatlar, jumladan, Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlari, Ozarbayjon, Avstriya, Belgiya, Bahrayn, Vengriya, Germaniya, Italiya, Iordaniya, Indoneziya, Qatar, Xitoy, Saudiya Arabistoni, Latviya, Mo‘g‘uliston, Marokash, O‘mon, BAA, Pokiston, Portugaliya, Rossiya, Koreya Respublikasi, Turkiya, Fransiya va dunyoning turli mintaqalarini ifodalovchi boshqa davlatlar hammualliflik qildi.

Rezolyutsiyada o‘rmonlarni barqaror boshqarish va daraxt o‘tqazishning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik afzalliklari har tomonlama qayd etilgan. Ularning biologik xilmaxillikni oshirish, iqlim o‘zgarishi va havo ifloslanishi oqibatlarini yumshatish hamda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga qo‘shgan hissasi, jumladan, kambag‘allikka barham berish va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashdagi hissasi alohida ta’kidlanadi.

Rezolyutsiyaning o‘ziga xos xususiyati uning atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi so‘nggi ilmiy yo‘nalishlarga muvofiqligidir. Shuningdek, ekologik toza va ekotizimga asoslangan usullardan foydalangan holda biologik xilmaxillikni saqlash va ko‘paytirish maqsadida BMTga a’zo mamlakatlarga daraxt ekish sohasida aniq tavsiyalar beriladi.

**“Dunyo” AA.**
Nyu-York

## O‘ZBEKISTON VA BMT O‘RTASIDAGI HAMKORLIK YANADA KENGAYADI

*Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva BMTning O‘zbekistondagi doimiy koordinatori Sabina Maxl bilan uchrashdi.*

**Uchrashuv**

Unda O‘zbekiston va BMT hamkorligida amalga oshirilayotgan samarali loyihalar va istiqboldagi rejalar, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, inson huquqlarini ta’minlash, gender tenglikka oid masalalar muhokama qilindi.

O‘z navbatida, Sabina Maxl keyingi yillarda O‘zbekistondagi keng ko‘lamli islohotlarni, jumladan, ochiqlik siyosati tufayli yuqori natijalar qayd etilayotganini, bu esa boshqa mamlakatlarga namuna bo‘layotganini alohida e’tirof etdi.

Shuningdek, muloqot davomida “Gender zo‘ravonlikka qarshi 16 kunlik faol harakatlar” doirasidagi ishlarni birgalikda amalga oshirish, mahalliy Kengashlarning faoliyatini takomillashtirish yuzasidan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish takliflari ham ilgari surildi.

**“Xalq so‘zi”.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
FARMONI

# TADBIRKORLAR KUNI MUNOSABATI BILAN SOHA VAKILLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

**Xalimov Shuxrat Zakirovich** – Urganch shahridagi “Urganch baxmal” mas’uliyati cheklangan jamiyati kuzatuv kengashi raisi, Xorazm viloyati

**Shakirov Jamshid Abdugapparovich** – Navoiy shahridagi “Uzbekistan Hydrogen Peroxide” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Navoiy viloyati

**“Kelajak bunyodkori” medali bilan**

**Kamolov Mirsaid Shavkatovich** – Buxoro shahridagi “Truck Profi” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Buxoro viloyati

**Samiqjonov Bekzod Alisher o‘g‘li** – Uchtepa tumanidagi “Sofiya qandolat” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Toshkent shahri

**“Shuhrat” medali bilan**

**Abduraximov Muxsin Muminovich** – Uchko‘prik tumanidagi “Kokand Bicycles” xususiy korxonasi rahbari, Farg‘ona viloyati

**Absattarov Abdulvaxab** – Termiz shahridagi “Termiz qurilish industriya sanoat” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Surxondaryo viloyati

**Bekmirzayev Baxtiyor Sodiqjonovich** – Namangan tumanidagi “Nam Motor Servis” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Namangan viloyati

**G‘iyosov Abdinabi Kamolovich** – Yakkabog‘ tumanidagi “Kumush kuz fayzi” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Qashqadaryo viloyati

**Ibodullayev Umarjon G‘aybullayevich** – Urgut tumanidagi “Bekmez Carpet” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Samarqand viloyati

**Karimov Abdumo‘min Djabbarovich** – Sharof Rashidov tumanidagi shaxsiy tomorqa yer egasi, Jizzax viloyati

**Kayumov Xusamiddin Xusnutdinovich** – Shayxontohur tumanidagi “Mak Food Servis” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Toshkent shahri

**Norbayev Mansurbek Shonazarovich** – Urganch shahridagi “Urganch Textile Carpets” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Xorazm viloyati

**Tashmuxamedova Muxabbat Baxtiyorovna** – Chilonzor tumanidagi “Nurafshon-Nur” xususiy korxonasi direktori, Toshkent shahri

**Telakova Surayo Ramazanovna** – Parkent tumanidagi “Shabnam Elegant” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Toshkent viloyati

**Tillabayev Xadiyatullo Axmadullayevich** – Andijon shahridagi “Dinar Tekstil” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Andijon viloyati

**Xalilov Baxodir Xamitovich** – Namangan shahridagi “Sifat yog‘och sanoat” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Namangan viloyati

**Xamrayev Rustam Elmuratovich** – Jizzax shahridagi “Sharof Rashidov nomidagi to‘qimachilik kombinati” mas’uliyati cheklangan jamiyati bosh direktori, Jizzax viloyati

**Shamatova Shoiraxon Alimovna** – Sayxunobod tumanidagi “Olimjon qizi Shoiraxon” fermer xo‘jaligi boshlig‘i, Sirdaryo viloyati

**Elova Saodat Axtamovna** – Uchquduq tumanidagi “Choco Life” oilaviy korxonasi rahbari, Navoiy viloyati

**Eshonkulov Shokir Xamdamovich** – Payariq tumanidagi “Silver Green Tea” oilaviy korxonasi direktori, Samarqand viloyati

**Yuldashev Xurshid Ruzmametovich** – To‘rtko‘l tumanidagi “To‘rtko‘l shisha idishlari” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

**Yusupov Xursandbek Ubaydullayevich** – Shahrixon tumanidagi “Saxovat Teks” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Andijon viloyati

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti** **Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2024-yil 14-avgust

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
FARMOYISHI

# “FAOL TADBIRKOR” KO‘KRAK NISHONI BILAN TAQDIRLASH TO‘G‘RISIDA

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

**Urazbayev Ajiniyaz Abdreymovich** – Nukus shahridagi “Orient Technology” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

**Abduraimov Abdurashid Abduraxmon o‘g‘li** – Shahrixon tumanidagi “Mebel Esse” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Andijon viloyati

**Djurayev Iftixor Abduraimovich** – Qo‘rg‘ontepa tumanidagi “Yagona sharq zamini” xususiy korxonasi rahbari, Andijon viloyati

**Mamajanov Usmonjon Abdusamatovich** – Oltinko‘l tumanidagi “Mubina Grand Tekstil” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Andijon viloyati

**Mamirbekov Boxodirjon Baxtiyorjon o‘g‘li** – Oltinko‘l tumanidagi “Shohona mebel” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Andijon viloyati

**Mirzadjonov Olimjon Arifjonovich** – Shahrixon tumanidagi “Original Invest Dizayn” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Andijon viloyati

**Muxitdinov Zuxriddin Idiyominovich** – Andijon tumanidagi “Andijon yashil energiyasi” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Andijon viloyati

**Rejapov Boburmirzo Maxmudjonovich** – Buloqboshi tumanidagi “Ko‘hna buloq” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Andijon viloyati

**Xushnazarov Ziyovutdin Ikromovich** – Jalaquduq tumanidagi “Obod diyor niholi” chorvachilik fermer xo‘jaligi boshlig‘i, Andijon viloyati

**Bekov Sodiqjon Abdullayevich** – G‘ijduvon tumanidagi “Bek Bags-Business” oilaviy korxonasi rahbari, Buxoro viloyati

**Djurayeva Mastura Gaybulloyevna** – Kogon tumanidagi “Buxara-Tehron” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Buxoro viloyati

**Ismailov Baxritdin Safarovich** – Buxoro shahridagi “Pasquale” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Buxoro viloyati

**Kenjayev Anvar Amandillayevich** – Vobkent tumanidagi “Zahro yulduzi” chorvachilik fermer xo‘jaligi boshlig‘i, Buxoro viloyati

**To‘xtayev Farrux Mustaqimovich** – G‘ijduvon tumanidagi “Buxoro Fayz Tekstil” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Buxoro viloyati

**Usmonov Rustamjon Ochilovich** – Jondor tumanidagi “Abdul Boqi Rahmon” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Buxoro viloyati

**Xamdamov Nodir Muxamatovich** – Kogon shahridagi “Akbarjon Barakat” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Buxoro viloyati

**Abilxayev Yusuf Abdalimovich** – Baxmal tumanidagi “Baxmal Gold Grain” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Jizzax viloyati

**G‘azibekov Elyor Esankulovich** – Baxmal tumanidagi “Melon Trade” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Jizzax viloyati

**Ibragimov Zayniddin Maxkamovich** – Paxtakor tumanidagi “World Trading Company” mas’uliyati cheklangan jamiyati bosh direktori, Jizzax viloyati

**Isakov Vasidbek Oybekovich** – Sharof Rashidov tumanidagi “Oybek Super Trans” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Jizzax viloyati

**Kurbonov Sardor Alimjonovich** – Jizzax shahridagi “Nurli To‘lqin Servis” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Jizzax viloyati

**Meliboyev Jamshid Valijonovich** – Paxtakor tumanidagi “Paxtakor Gold Textile” mas’uliyati cheklangan jamiyati bosh direktori o‘rinbosari, Jizzax viloyati

**Norbekov Sherzod Baxromovich** – Forish tumanidagi “Responsible Travel” turizm firmasi rahbari, Jizzax viloyati

**Yakubova Marxabo Umarjanovna** – Sharof Rashidov tumanidagi “Jizzax Bek-Star” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Jizzax viloyati

**Jabborov Anvar Norboyevich** – G‘uzor tumanidagi “Jahongir Norboy o‘g‘li” fermer xo‘jaligi boshlig‘i, Qashqadaryo viloyati

**Jalolov G‘ani Nurullayevich** – Chiroqchi tumanidagi “Chiroqchi buyursin tekstil” xususiy korxonasi rahbari, Qashqadaryo viloyati

**Mannonova Maxliyo Nosirjonovna** – Shahrisabz shahridagi “Shahrisabz hunarmandlari klasteri” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Qashqadaryo viloyati

**Ortiqov Saloxiddin Jamolovich** – Yakkabog‘ tumanidagi “Odinabonu orzusi” xususiy korxonasi rahbari, Qashqadaryo viloyati

**Saidov Akram Rustamovich** – Kitob tumanidagi shaxsiy tomorqa yer egasi, Qashqadaryo viloyati

**Farmanov Muradali Karimovich** – Qamashi tumanidagi “Murodali Farm Tekstil” mas’uliyati cheklangan jamiyati ijrochi direktori, Qashqadaryo viloyati

**Xoliyarov Sirojiddin Rajabovich** – Qamashi tumanidagi “Rossvik Tashkent” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Qashqadaryo viloyati

**Shukurov Ilhomjon Karimovich** – Qarshi shahridagi “Safe Collection” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Qashqadaryo viloyati

**Boboyev Shodiboy Qilichevich** – Nurota tumanidagi “Sentob-Shaxi-Mustafo” xususiy korxonasi rahbari, Navoiy viloyati

**Djiyenbayev Yernur Yerkinovich** – “Shamol Zarafshan Energy” mas’uliyati cheklangan jamiyati loyiha katta menejeri, Navoiy viloyati

**Ju Dongliang** – Karmana tumanidagi “Zarafshon Industrial Technology” xorijiy korxonasi direktori, Navoiy viloyati

**Jo‘rayev Feruz G‘ayratovich** – Navoiy shahridagi “Petrawool” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Navoiy viloyati

**Zaripov Odil G‘ulomovich** – Navoiy shahridagi “Navoiy Kompozit” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Navoiy viloyati

**Zoxidov Jamshid Ixtiyorovich** – Karmana tumanidagi “Javlonbek Baraka Non” oilaviy korxonasi rahbari, Navoiy viloyati

**Kurbanov Jandarbek Oralbekovich** – Tomdi tumanidagi “Balg‘inbek-Dulatbek” tuyachilik fermer xo‘jaligi boshlig‘i, Navoiy viloyati

**Nasulloyev Xomidjon Erkinovich** – Zarafshon shahridagi “Erkin Emina Express Tour” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Navoiy viloyati

**Azizov Akram Axatxanovich** – Davlatobod tumanidagi “Fahr Nur Servis” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Namangan viloyati

**Giyazov Javlon Muxammadovich** – Davlatobod tumanidagi “Paper Box Invest” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Namangan viloyati

**Zokirov Obidjon Sobirjon o‘g‘li** – Uychi tumanidagi “Uychi Med Diagnoz” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Namangan viloyati

**Ibragimov Yusufjon Kamildjanovich** – Uychi tumanidagi “Nafis-Charm” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Namangan viloyati

**Mamayusupov Abdulvoxid Abdulbori o‘g‘li** – Namangan shahridagi “Master Class Dizayn Lider” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Namangan viloyati

**Muradov Abdusattor Asatullayevich** – Namangan shahridagi “Flat Tile” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Namangan viloyati

**Muratov Rashid Boriyevich** – Chust tumanidagi “Namangan sement” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Namangan viloyati

**Umarkulov Shokirjon Maxamadaminovich** – Uchqo‘rg‘on tumanidagi “Musaffo baraka savdo biznes” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Namangan viloyati

**Abulkasimov Najmiddin Tursunovich** – Ishtixon tumanidagi “Mitan Yog‘du Elektrik” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Samarqand viloyati

**Mirboboyev Shaxob Asatillo o‘g‘li** – Urgut tumanidagi “Urgut Mikro Metal” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Samarqand viloyati

**Nabiyev Abduvali Pardayevich** – Samarqand shahridagi “Samarqand keramika cherepitsa” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Samarqand viloyati

**Sattarov Djamshed Salomovich** – Samarqand shahridagi “Samled” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Samarqand viloyati

**Usanov Isropil Xushbokovich** – Samarqand shahridagi “Zamin Travel” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Samarqand viloyati

**Xadjiyev Gayratjon Xusenovich** – Samarqand shahridagi “Armas” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Samarqand viloyati

**Xakberdiyev Zafar Rustamovich** – Pastdarg‘om tumanidagi “Samarqand Kamalak Invest Tekstil” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Samarqand viloyati

**Xamroyev Akobir Asrorovich** – Oqdaryo tumanidagi “Tango Plast” oilaviy korxonasi direktori, Samarqand viloyati

**Gafurov Murat Xamdamovich** – Sirdaryo tumanidagi “Baxtteks-Farm” mas’uliyati cheklangan jamiyati bosh direktorining o‘rinbosari, Sirdaryo viloyati

**Gayupov G‘ulomjon Aliqulovich** – Guliston shahridagi “Mehr vodiysi” unitar korxonasi rahbari, Sirdaryo viloyati

**Danishev Baxriddin Xabibullayevich** – Yangiyer shahridagi “New-Zomin-Sardor” oilaviy korxonasi ta’sischisi, Sirdaryo viloyati

**Mirsaidov Xondamir Ulugbekovich** – Mirzaobod tumanidagi “Barakali tuxumlar” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Sirdaryo viloyati

**Nurmatov Zayniddin Muratovich** – Sayxunobod tumanidagi shaxsiy tomorqa yer egasi, Sirdaryo viloyati

**Axmedov Jamshid Shuxratovich** – Jarqo‘rg‘on tumanidagi “Parranda Kompleks Savdo” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Surxondaryo viloyati

**Kazakov Kurbonali Ramazonovich** – Denov tumanidagi “Qurbonali tekstil” oilaviy korxonasi rahbari, Surxondaryo viloyati

**Karimov Alimardon Abduxalilovich** – Termiz shahridagi “Brightly Mega Water” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Surxondaryo viloyati

**Mirzayev Kamol Abdivoxitovich** – Qiziriq tumanidagi “Mirzayev Kamol Abdivoxidovich” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Surxondaryo viloyati

**Narxamedov Furkat Xamatovich** – Termiz tumanidagi “Olis osmon” xususiy korxonasi rahbari, Surxondaryo viloyati

**Xoliqova Feruza Ashurqulovna** – Boysun tumanidagi yakka tartibdagi tadbirkor, hunarmand-kashtachi, Surxondaryo viloyati

**Abdullayev Furkatilla Shukurovich** – Toshkent tumanidagi “Muhammad ishonch agro” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Toshkent viloyati

**Akramov Timurbek Tulkinovich** – Quyi Chirchiq tumanidagi “Sanfa Engineering” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori o‘rinbosari, Toshkent viloyati

**Zaxidov Xojiakbar Mirsadikovich** – Nurafshon shahridagi “Textile Mill Tashkent” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Toshkent viloyati

**Ilxamov Shavkat Sharifovich** – Qibray tumanidagi “Navruz International Corp” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Toshkent viloyati

**Mivanchinov Rustam Maneevich** – O‘rta Chirchiq tumanidagi “Manayev agro klaster” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Toshkent viloyati

**Mutalov Otabek Xakimjonovich** – Toshkent tumanidagi “Promeat Group Corp” mas’uliyati cheklangan jamiyati bosh direktori, Toshkent viloyati

**Xasanova Xolida Muratovna** – Nurafshon shahridagi “Guzelsoy” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Toshkent viloyati

**Yunusov Suxrobdjon Abdukaxorovich** – Parkent tumanidagi “Hilal Tekstil” mas’uliyati cheklangan jamiyati bosh direktori, Toshkent viloyati

**Abdurasulov Elmurod Tashpulatovich** – Quvasoy shahridagi oilaviy korxona rahbari, Farg‘ona viloyati

**Akbarov Saidaxmad Abduhamidovich** – Rishton tumanidagi “Mohi Diyor Roshidon” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Farg‘ona viloyati

**Nosirov Jaxongir Mansurovich** – Beshariq tumanidagi “Beshagro Eksport” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Farg‘ona viloyati

**Parpiyev Sherzod Alikovich** – Farg‘ona shahridagi “Davr-Ru” xususiy korxonasi rahbari, Farg‘ona viloyati

**Umarova Marifatxon Yuldoshovna** – Dang‘ara tumanidagi “Vodiy Expo” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Farg‘ona viloyati

**Usmonova Gulnora Xoshimjonovna** – Bag‘dod tumanidagi “Gulnora Matqulobod bodomlari” ishlab chiqarish kooperatsiyasi rahbari, Farg‘ona viloyati

**Xayrullayeva Zebiniso Zikireevna** – Farg‘ona shahridagi “Tantana tekstil” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Farg‘ona viloyati

**Erkaboyev Sherzodjon Maxmudaliyevich** – Beshariq tumanidagi “Sherwood Dizayn” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Farg‘ona viloyati

**Djumanyazova Zamira Egamberdiyevna** – Qo‘shko‘pir tumanidagi yakka tartibdagi tadbirkor, hunarmand-yog‘och o‘ymakori, Xorazm viloyati

**Yormetov Azimboy Ro‘zimovich** – Shovot tumanidagi “Shovot temir-beton” xususiy korxonasi rahbari, Xorazm viloyati

**Ro‘zmetova Zarafshon** – Xiva shahridagi “Hotel Zarafshon Boutique” oilaviy korxonasi ta’sischisi, Xorazm viloyati

**Sabirov Doniyorbek Quvondiqovich** – Urganch shahridagi “Eco Obi Hayot” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Xorazm viloyati

**Saidov To‘lqinbek Ikrombayevich** – Hazorasp tumanidagi “To‘lqin innovatsion FM maktabi” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Xorazm viloyati

**Xasanov Rasulbek Sabirovich** – Gurlan tumanidagi “Ixlosbek” chorvachilik fermer xo‘jaligi boshlig‘i, Xorazm viloyati

**Asralxodjayev Farrux Fayozxonovich** – Olmazor tumanidagi “Solar Nature” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Toshkent shahri

**Dusmuxamedov Omon Xamidovich** – Uchtepa tumanidagi “Akmal Umid Baraka” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Toshkent shahri

**Ibragimov Bunyodbek Abdusharipovich** – Yaponiya davlati Nagoya shahridagi “Global Silk Road Inc” kompaniyasi ta’sischisi

**Irgashev Umid Muxamedkarimovich** – Chilonzor tumanidagi “Feed Up” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Toshkent shahri

**Kamilov Mirzabaxodir Mirzakalonovich** – Yangihayot tumanidagi “Artikul Aziya Kabel” mas’uliyati cheklangan jamiyati boshqaruvi raisi, Toshkent shahri

**Maxmudov Sherzod Sur’atovich** – “Korzinka.uz” supermarketlar tarmog‘i tijorat direktori, Toshkent shahri

**Rozmetov Ziyaviddin Mutanovich** – Yunusobod tumanidagi “Ro‘zmetov Z.M” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Toshkent shahri

**Salixov Validjan Kuchkarovich** – Olmazor tumanidagi “Zafarxon” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, “Ermak” savdo belgisi asoschisi, Toshkent shahri

**Tuxtayev Baxtiyor Baxodirovich** – Yakkasaroy tumanidagi “Solidity Group” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Toshkent shahri

**Sheraliyev Bobir Kadirovich** – Bektemir tumanidagi “Texno Invest Proekt” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Toshkent shahri

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti** **Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2024-yil 14-avgust

# TOSHKENT VILOYATINI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH DASTURLARI IJROSI MUHOKAMASI

*Oliy Majlis Senati Kengashining navbatdagi sayyor majlisi Toshkent viloyatida o‘tkazildi. Unda viloyat hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari ijrosi atroflicha muhokama qilindi.*

## Senator va hayot

Ta’kidlanganidek, 2017 – 2023-yillarda yalpi hududiy mahsulot (YAHM) hajmi 1,4 baravarga oshgan. YAHMning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan ulushi yetti yil oldingi 10,2 mln. so‘mdan 35,7 mln. so‘mga yetgan.

Shuningdek, ushbu davrda sanoat hajmi 1,6 barobar, qurilish ishlari – 2,9, bozor xizmatlari – 1,8, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 1,1 barobar oshgan. Uchta erkin iqtisodiy zona, 56 ta kichik sanoat hamda 15 ta yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasi faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

Investitsiya dasturlari doirasida 4,5 mingdan ziyod loyihalar ishga tushirilgan va shu tariqa 143 ming aholining bandligi ta’minlangan.

Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari soni 2017-yilning boshida 23 mingtani tashkil etgan bo‘lsa, joriy yilga kelib 59,7 mingtaga yetgan.

Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish dasturlari doirasida 233 ta davlat maktabgacha ta’lim muassasasida qurilish, rekonstruksiya va mukammal ta’mirlash ishlari amalga oshirildi. 1,7 mingdan ziyod nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari tashkil qilinishi hisobiga qamrov 39,1 foizdan 70,9 foizgacha oshgan.

Muhokama jarayonida senatorlar hududda amalga oshirilgan ijobiy ishlar bilan birga viloyatda iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, tadbirkorlik hamda mahalliy sanoatni rivojlantirish, investitsiyalarni faol jalb qilish va eksport hajmini oshirish, aholi bandligini ta’minlash borasidagi kamchiliklar hamda hal etilishi lozim bo‘lgan masalalarga ham e’tibor qaratdi.

Xususan, joriy yilning 1-yarim yilligida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmida o‘sish sur’ati Parkent va O‘rta Chirchiq tumanlarida hamda Nurafshon shahrida ta’minlanmagan. Hududiy eksport prognozi ko‘rsatkichlari ijrosi Qibray, Bo‘stonliq va Toshkent tumanlarida bajarilmagan.

Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida Toshkent viloyatida davlat-xususiy sheriklik asosida umumiy o‘rta ta’lim maktablarini tashkil etish loyihasi doirasida 4 ta maktab loyihasi uchun yer uchastkalari ajratilmagan va loyihaning konsepsiyasi ishlab chiqilmagan.

Hududiy bandlik dasturi doirasida investitsiya loyihalarini ishga tushirish hisobiga yaratilgan yangi ish o‘rinlarida aholini band qilish rejasi Piskent, Bo‘ka va Ohangaron tumanlarida viloyat ko‘rsatkichidan past darajada ijro etilgan. Qishloq xo‘jaligi sohasida doimiy ish o‘rinlarini yaratish bo‘yicha belgilangan prognoz ko‘rsatkichi O‘rta Chirchiq, Zangiota, Quyi Chirchiq va Qibray tumanlarida bajarilmagan.

“Ayollar daftari”dagi ishsiz xotin-qizlar bandligini ta’minlashda Bo‘stonliq, Yangiyo‘l va Qibray tumanlarida mavjud bo‘sh turgan hamda yangi yaratilgan ish o‘rinlaridan samarali foydalanilmagan.

O‘z navbatida, majlisda senatorlar tomonidan mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etish lozimligi qayd etildi. Hududning salohiyati, geografik joylashuvi, tabiiy va mineral resurslarini hisobga olgan holda yangi turdagi yuqori texnologik, innovatsiya va fan yutuqlariga asoslangan mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, mavjud muammolarni bartaraf etish yuzasidan aniq chora-tadbirlar qabul qilish takliflari bildirildi.

Shuningdek, xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari har oyda dasturlar doirasida belgilangan vazifalar ijrosiga mas’ul idoralarning ishlari to‘g‘risidagi hisobotlarni eshitishi, bu borada mas’uliyatsizlikka yo‘l qo‘ygan mutasaddilarga nisbatan ta’sirchan choralar ko‘rishi zarurligi ta’kidlandi.

**“Xalq so‘zi”.**

**Yoshlarga oid davlat siyosati – amalda**

# QONUNCHILIK JARAYONI BILAN TANISHUV

*O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Toshkent shahar Kengashi mas’ul xodimlari hamda ittifoqning oliy ta’lim muassasalaridagi boshlang‘ich tashkilot yoshlar yetakchilari Oliy Majlis Senatida bo‘ldi.*

Uchrashuvda Senat huzuridagi Yoshlar parlamenti va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Toshkent shahar Kengashi o‘rtasida o‘zaro hamkorlik memorandumi imzolandi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda, yigit-qizlarning huquqiy bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishda hamkorlik qilish, talaba-yoshlarni qonun ijodkorligi jarayonlari va normativ-huquqiy hujjatlar ijrosi borasida jamoatchilik monitoringini olib borishga jalb etish, seminar, konferensiya hamda davra suhbati kabi tadbirlarni birgalikda o‘tkazib borishdan iborat.

Memorandumda Yoshlar parlamenti Yoshlar ittifoqi bilan qator yo‘nalishlarda hamkorlik olib borishi belgilab qo‘yildi. Oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalar o‘rtasida huquqiy savodxonlikni oshirish, ularning muammo va takliflarini mas’ul tashkilotlar bilan hamkorlikda hal etish, siyosiy-huquqiy ruhdagi medialoyihalarni ishlab chiqish shular jumlasidandir.

Uchrashuvdan so‘ng ishtirokchilar Senat binosi va uning faoliyati bilan tanishib, Yoshlar parlamentining maqsad va vazifalari hamda tashkiliy tuzilmasi haqida atroflicha ma’lumot oldi.

**“Xalq so‘zi”.**

**O‘zbekiston karatechilari Tokiodagi xalqaro musobaqada 30 ta medalni qo‘lga kiritdi.**

# XOTIN-QIZLAR VA BOLALARNI OILAVIY ZO'RAVONLIKLARDAN HIMOYALASH CHORALARI KUCHAYTIRILMOQDA

*Keyingi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini qonuniy himoya qilish choralari hamda kafolatlari mustahkamlanmoqda. Jumladan, 2019-yil 2-sentabrda "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni imzolandi. Prezidentimizning 2021-yil 19-mayda "Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.*



## Mushohada

Darhaqiqat, xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi. Bu haqda "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 32-moddasida ko'rsatilgan. Shuningdek, ushbu javobgarlik choralari va turlari Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda hamda Jinoyat kodeksida batafsil belgilangan.

Shu o'rinda tazyiq va zo'ravonlikning bir-biridan farqli jihatlari, og'irlik va xavflilik darajasi, malakalash shartlari mavjudligini qayd etish joiz.

Jumladan, **tazyiq** – sodir etilganligi uchun ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilmagan, xotin-qizlarning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitadigan harakat (harakatsizlik), shilqimlik, ta'qib etishda ko'rinadi.

**Zo'ravonlik** esa xotin-qizlarga nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta'sir o'tkazish yoki bunday choralarni qo'llash bilan tahdid qilish orqali ularning hayoti, sog'lig'i, jinsiy daxlsizligi, sha'ni, qadr-qimmati va qonun bilan himoyalanadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan g'ayrihuquqiy harakat (harakatsizlik)ni o'zida ifodalaydi.

Zo'ravonlikning ruhiy, jismoniy, jinsiy, iqtisodiy kabi bir necha turlari mavjud.

Ayrim huquqiy adabiyotlarda tazyiq va zo'ravonlikdan tashqari ta'qib etish harakatlari ham sodir qilinishi haqida ko'rsatilgan. Zo'ravonlikning alohida turi sifatida malakalangan.

**Ta'qib etish deganda,** jabrlanuvchining xohish-irodasiga qarshi, uning ikki yoki undan ortiq marta qarshilik ko'rsatganiga yoxud ogohlantirganiga qaramay sodir qilinadigan, jabrlanuvchini qidirishda, u bilan og'zaki, telekommunikatsiya tarmoqlari vositasida, jumladan, Internet jahon axborot tarmog'i orqali yoki boshqa usullarni qo'llash yo'li bilan muloqotga kirishishda, uning ish, o'qish va yashash joyiga borishda ifodalangan hamda jabrlanuvchida o'z xavfsizligi uchun xavotirlik qo'zg'atadigan harakatlar tushuniladi.

**Himoya orderi** – tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchiga davlat himoyasini taqdim etuvchi, xotin-qizlarga tazyiq o'tkazayotgan yoki ularga nisbatan zo'ravonlik sodir qilgan shaxsga yoxud bir guruh shaxslarga nisbatan qonunda belgilangan ta'sir ko'rsatish choralari qo'llanilishiga sabab bo'ladigan hujjat. Ushbu hujjat azoblangan, zo'rlik ishlatilgan, ta'qib ostida qolgan shaxs harakatlarini keyingi bosqichlarda malakalash uchun asos bo'ladi. Himoya orderi tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchiga beriladi. Tazyiq o'tkazgan va zo'ravonlik sodir etgan yoxud ularni sodir qilishga moyil bo'lgan shaxsga himoya orderining nusxasi taqdim etiladi. Himoya orderining amal qilish muddatini uzaytirishga yo'l qo'yiladi, bu borada jabrlanuvchining iltimosnomasi asosida qaror chiqariladi.

Shaxslar zo'ravonlik, tazyiq, ta'qib etganlik uchun qonunda belgilangan tartibda mustaqil (bevosita va bilvosita) javobgarlikka tortiladi. Yoki ayrim jinoyatlarning og'irlashtiruvchi belgisi sifatida malakalanadi va javobgarlikka tortiladi.

Masalan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning $46^1$-moddasi "Shaxsiy hayot daxlsizligini buzish" deb nomlanib, unga ko'ra "Shaxsning shaxsiy yoki oilaviy sirini tashkil etuvchi shaxsiy hayoti to'g'risidagi ma'lumotlarni uning roziligisiz qonunga xilof ravishda yig'ish yoki tarqatish" bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan qirq baravarigacha jarima solishga sabab bo'ladi.

Jinoyat kodeksining 136-moddasiga ko'ra, "Ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to'sqinlik qilish" jinoyat sifatida malakalanadi hamda ayolni turmushga chiqishga yoki nikohda yashashni davom ettirishga majbur qilish yoxud ayolning erkiga xilof ravishda u bilan nikohda bo'lish uchun o'g'rilash, shuningdek, ayolning erga tegishiga to'sqinlik qilish bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravarigacha jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum etish bilan jazolanadi.

Xotin-qizlarni zo'ravonlik shakllaridan saqlash va himoya qilish choralarini hamda ularning kafolatlarini yaratish va ta'minlash maqsadida yana boshqa qator (jumladan, turdosh qonunlarga) normativ-huquqiy hujjatlarga, tegishli normalarga, qismlarga (bandlarga) o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish zarurati sezilmoqda.

Fuqarolik sudlarida tazyiq va zo'ravonlik uchun javobgarlikka tortilgan shaxslardan jabrlanuvchilarga yetkazilgan zararni undirish holatlari bo'yicha fuqarolik ishlari ko'rilmoqda. Sudga murojaat etuvchi subyektlar doirasi kengaytirilib, ularga sudga murojaat qilishda (aynan zo'ravonlik, tazyiq holatlari bo'yicha) davlat bojidan ozod etish imtiyozi belgilandi. Masalan, "Davlat boji to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 8-moddasi "Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda davlat bojini to'lashdan ozod qilinuvchilar ro'yxatiga yangilik (to'ldirish) kiritilib, da'vogarlar – tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga yetkazilgan ma'naviy va moddiy zararning o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volar yuzasidan (izoh: qonunning 8-moddasi birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 5-oktabrdagi O'RQ-640-qonuniga asosan $5^1$-band bilan to'ldirilgan) davlat bojidan ozod etildi. Shu orqali jabrlanuvchilarning huquqlari to'laqonli himoya qilinyapti, ularning sudga murojaat etishda moddiy va oilaviy ahvoli hisobga olinmoqda. Shuningdek, jabrlanuvchilarning manfaatlarida sudga murojaat qiluvchi idoralarning vakolat doirasi kengaytirilmoqda va o'z navbatida, ularning ham moliyaviy holati himoyalanmoqda.

Ayni paytda yurtimizda huquq ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyoti tizimida, xususan, keng aholi o'rtasida **"Oilaviy (maishiy) zo'ravonliklardan himoyalash choralari kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi** keng muhokama qilinmoqda.

**Taqdim etilgan loyihadagi o'zgartirishlar, qo'shimchalar va to'ldirishlarning zarurati:**

- xotin-qizlar va bolalarga nisbatan turli ko'rinishdagi zo'ravonliklar ortishiga chek qo'yish va ularning oldini olish;
- oilaviy (maishiy) zo'ravonliklardan himoyalash choralarini yanada kuchaytirish;
- jinoiy va ma'muriy javobgarlikning yangi va maxsus turlarini joriy etish;
- bunday turdagi jinoyatlar va huquqbuzarliklarga nisbatan yengillashtiruvchi normalarni bekor qilish va javobgarlikni yanada kuchaytirish.

**Ishlanayotgan qonun loyihasining maqsadi** xotin-qizlar va bolalarga nisbatan zo'ravonlik va tazyiqning barcha shaklini bartaraf etishga erishish, bu borada jinoyat va ma'muriy javobgarlik choralarini kuchaytirish va uning yangi turlarini joriy qilishga qaratilgan.

**Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki,** xorijiy davlatlar (Shvetsiya, Shveysariya, Bolgariya, Avstriya, Ispaniya, Germaniya) jinoyat qonun-hujjatlarida oilaviy zo'ravonliklar uchun umumiy asoslarda yoki alohida moddalarda og'irlashtiruvchi holat sifatida javobgarlik choralari mavjud.

**Qonun loyihasi (o'zgartirish, qo'shimcha va to'ldirishlar) orqali quyidagilarga erishilmoqda:**

- O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 7-bo'limi Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari (17-bob) turkumiga yangi majburlov chorasi kiritilmoqda.
- Shaxsning xulq-atvorini o'zgartirish bo'yicha majburlov choralari qo'llanilib, yangi institut vujudga kelmoqda, amaldagi bob yangi chora bilan to'ldirilmoqda.
- O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining $126^1$-moddasi dispozitsiyasiga aynan "...bolaga nisbatan..." jumlasi qo'shilib, oilaviy (maishiy) zo'ravonlik qilganlik uchun javobgarlik belgilanmoqda.
- O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 457-moddasi hukm chiqarish vaqtida sud hal qiladigan masalalar doirasi yanada kengaytirilib, "$15^1$-modda sudlanuvchining xulq-atvorini o'zgartirish bo'yicha majburlov choralarini qo'llash zarurati..." asosi (yangi band) bilan to'ldirilmoqda.
- O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning amaldagi $59^2$-moddasi dispozitsiyasi yangi "...jumladan, bolaga nisbatan...." jumlasi bilan to'ldirilib, bolaga nisbatan oilaviy (maishiy) zo'ravonlik qilganlik uchun javobgarlik belgilanmoqda. O'z navbatida, Jinoyat kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi normalari muvofiqlashtirilmoqda.

Ta'kidlash joizki, ushbu kiritilayotgan o'zgartirishlar jamiyatimizda xotin-qizlar, himoyaga muhtoj qatlamlarni, jumladan, bola huquqlarini, ularning manfaatlarini himoyalash barobarida jamiyatimizda turli huquqbuzarliklar, jinoyatlar (ayniqsa, oilaga qarshi jinoyatlar) sodir bo'lishi, axloqsiz xatti-harakatlar kamayishiga, oilaviy qadriyatlar toptalmasligiga, nikoh munosabatlarida jiddiy muammolar (ajrimlar, ta'minot bilan bog'liq da'voli ishlar) kelib chiqishining oldini olishga xizmat qilishi, shubhasiz.

**Gulnora MA'RUFOVA,**
**Oliy Majlis Senati a'zosi.**

---

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

# INSON QADR-QIMMATI DAXLSIZLIGI KAFOLATLARI YANADA MUSTAHKAMLANADI

*Kuni kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Quyi palata Spikeri N. Ismoilov majlis avvalida O'zbekiston sportchilarining "Parij – 2024" yozgi Olimpiya o'yinlarida erishgan yutuqlari bilan samimiy tabriklab, bu tarixiy g'alabalar barchamizga juda katta g'urur bag'ishlagani, ayniqsa, bokschilarimiz dunyoda tengsiz ekanligini namoyon etganini aytdi.*

Ushbu yutuqlar zamirida Prezidentimiz rahbarligida barcha jabhada, shu jumladan, sport sohasida katta islohotlar amalga oshirilganligi, sportchilarning iste'dodi va iqtidorini ro'yobga chiqarishi uchun yetarli sharoitlar yaratib berilayotganligi hamda sport sohasi har tomonlama qo'llab-quvvatlanayotgani mujassamligi alohida ta'kidlandi.

Shuningdek, yangi tahrirdagi Konstitutsiya va "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida O'zbekiston tashqi siyosatida yaqin qo'shnilarimiz bilan o'zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish va yanada mustahkamlash ustuvorlik kasb etayotgani, mamlakatimiz rahbarining Qozog'istonga amalga oshirgan davlat tashrifi qardosh davlat va xalqlarimiz o'rtasidagi yaxshi qo'shnichilik va do'stona munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqadigan tarixiy voqelik bo'lgani, O'zbekiston va Qozog'iston munosabatlarining barcha yo'nalishi batafsil muhokama qilingani aytildi.

Yalpi majlisda xorijdagi fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya qilishni kuchaytirish, temir yo'l va transport sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, banklardagi omonatlarni kafolatlash tizimini mustahkamlash, davlat mulkini xususiylashtirish jarayonini yanada jadallashtirishga doir qator qonun loyihalari hamda parlament nazoratiga oid masalalar ko'rib chiqildi.

### Xorijda jazoni o'tayotgan vatandoshlarni O'zbekistonga qaytarishning huquqiy asoslari

Xorijiy davlatlar bilan ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlar jazoni o'tashini hamda ruhiy kasallikka chalingan shaxslarni majburiy davolashni davom ettirish uchun topshirish borasida kelishuvlar imzolangan.

Hozirda mamlakatimizni 10 ta davlat (Italiya, Turkiya, Gruziya, Ozarbayjon, Qozog'iston, Eron, Birlashgan Arab Amirliklari, Latviya, Turkmaniston, Ukraina) bilan ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarni kelgusida jazoni o'tash uchun o'z yurtiga topshirishni ko'zda tutuvchi kelishuvlar mavjud. Shuningdek, mamlakatimiz MDH mamlakatlarining "Majburiy davolash o'tkazish uchun ruhiy kasallikka chalingan shaxslarni topshirish to'g'risida"gi (Moskva, 1997-yil 28-mart) konvensiyasining ishtirokchisi ham hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Jinoyat-protsessual kodeksiga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Unga ko'ra xorijiy davlat tomonidan topshirilgan mahkumga nisbatan jazo muddati xorijiy davlat hukmi bilan belgilangan jazoga mutanosib ravishda hisoblanishi, shuningdek, chet elda tayinlangan jazo turi O'zbekistonda nazarda tutilmagan bo'lsa, ushbu jazo turiga mos keladigan boshqa jazo qo'llanilishiga doir qoidalar o'rnatilmoqda.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi.

### Temir yo'l transporti sohasidagi monopoliya tugatiladimi?

Deputatlar temir yo'l transporti sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan "Temir yo'l transporti to'g'risida"gi qonun loyihasini birinchi o'qishda konseptual jihatdan ko'rib chiqdi.

Qonun loyihasi bilan sog'lom raqobat muhitini yaratish, sohaga xususiy sektorni keng jalb qilish, temir yo'l transportini



monopoliyadan chiqarish maqsadida tashuvchilarning huquqlari bilan birga majburiyatlari alohida belgilanmoqda. Vagonlar (konteynerlar) operatoriga o'ziga tegishli bo'lgan vagonlarni (konteynerlarni) haq evaziga yuk jo'natuvchi, yukni oluvchi, tashuvchilarga shartnomalar asosida taqdim etish imkoniyatlari yaratilyapti.

Eng muhimi, umumiy foydalanishdagi temir yo'l transporti infratuzilmasi obyektlari, jumladan, temir yo'l, temir yo'l stansiyalari, elektr ta'minoti qurilmalari, aloqa tarmoqlari, harakatni boshqarish tizimi va boshqalar uchinchi shaxslarga sotilishi yoki begonalashtirilishiga ruxsat etilmasligi belgilanib, infratuzilma operatori infratuzilma obyektlaridan foydalanishda tashuvchilarga teng huquq berishi, agarda kamsituvchi harakatlar aniqlangan taqdirda, infratuzilma operatori ushbu harakatlar uchun javobgar bo'lishi o'rnatilmoqda.

Bundan tashqari, qonun loyihasida ushbu yo'nalishda davlat-xususiy sheriklikning huquqiy asoslarini yaratish, investitsiyalarni jalb etishni kengaytirish, nodavlat sektori ishtirokini rag'batlantirish maqsadida vokzallar va temir yo'l transporti ehtiyojlari uchun ajratilgan yer uchastkalarini davlat-xususiy sheriklik asosida qurish, modernizatsiya qilish va boshqarish uchun xususiy sherikka berish mumkinligi belgilanmoqda.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

### Fuqarolarning banklardagi omonatlari kafolatlanadi

"Banklardagi omonatlarni himoyalash kafolatlari to'g'risida"gi qonun loyihasi ham quyi palata majlisida birinchi o'qishda atroflicha muhokama qilindi.

Ta'kidlandiki, dunyo moliya bozorlaridagi nobarqarorliklar sharoitida banklarga omonatlarni qo'yishda uning kafolatlanganligi dolzarb masalaga aylanmoqda. O'zbekiston banklaridagi kafolatlash tizimining hozirgi holati ham bundan mustasno emas.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ushbu qonun loyihasida omonatlarni kafolatlash tizimini isloh qilish, jumladan, bank tizimining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash, uni ilg'or xorijiy tajriba va xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish ko'zda tutilmoqda.

Shuningdek, loyihada aholi va tadbirkorlik subyektlarining bank tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash uchun iqtisodiy inqirozlarning salbiy oqibatlarini minimallashtirish maqsadida kafolatlangan omonat miqdorining yuqori chegarasi (200 mln. so'm) belgilanmoqda. Bunda omonatlarning amaldagi holati to'liq tahlil qilindi.

Xususan, ushbu miqdor bugungi kunda mamlakatimizda 99,7 foiz omonatchilarning banklardagi mablag'lari to'liq kafolatlanishini ta'minlaydi.

Qonun tashabbuskorlarining ma'lum qilishicha, kafolatlangan omonat miqdorining cheklangani bilan banklar fuqaroviy javobgarlikdan ozod etilmaydi va ular omonatchilari oldida o'zining mol-mulki bilan javobgar bo'lishadi. Bu – omonatchilar pul mablag'larining kafolatlangan hajmdan oshgan qismini ham bankdan talab qilish huquqiga ega, degani.

Yig'ilishda tashabbuskorlar deputatlarning e'tiborini yana bir muhim masalaga qaratdi. Ta'kidlandiki, kafolatlangan omonat miqdorining yuqori chegarasi muayyan shaxsning faqat bitta bankdagi omonatiga tatbiq etiladi, ya'ni ushbu shaxs bir vaqtning o'zida bir nechta banklarda o'z omonatlariga ega bo'la turib, mazkur banklarning barchasi tugatilgan taqdirda ham qonun loyihasi bilan yaratilayotgan tizim barcha omonatlarni bir xilda kafolatlaydi.



Ta'kidlash lozimki, mazkur qonun u kuchga kirgan sanadan ilgari banklarga joylashtirilgan omonatlarga tatbiq etilmaydi, ya'ni bankka qo'yilgan summadan qat'i nazar, ular to'liq kafolatlanadi. Shu bilan birga, bank tugatilgan taqdirda omonatlarni qaytarib berish hozirgiday uzoq vaqtni talab qilmaydi, ya'ni qonun bilan omonatlarni 7 ish kunida qaytarib berish tartibi joriy etilmoqda.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

### Kichik sanoat zonalari ishtirokchilariga bino va inshootlarni xususiylashtirish vakolati berilmoqda

"Davlat mulkini xususiylashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga qo'shimcha kiritish haqidagi"gi qonun loyihasi ham parlament quyi palatasi majlisida muhokama markazida bo'ldi.

Ta'kidlanganidek, amaldagi qonunda kichik sanoat zonalari ishtirokchilari tomonidan investitsiya va ijtimoiy majburiyatlar bajarilganda, ko'chmas mulk obyektlarini, jumladan, bino va inshootlarni to'g'ridan-to'g'ri bozor qiymatida xususiylashtirib olish huquqi mavjud emas. Xuddi shunday huquqiy bo'shliq yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyatida ham kuzatilmoqda. Bu esa mamlakatimizda tadbirkorlik faolligini yanada oshirishga to'sqinlik qilmoqda.

Deputatlarning fikricha, qonun loyihasining qabul qilinishi orqali kichik sanoat zonalari ishtirokchilariga bino va inshootlarni xususiylashtirish huquqi vujudga keladi. Bu, o'z navbatida, mamlakatimiz iqtisodiyotiga investitsiyalar kiritilishini jadallashtirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va tadbirkorlik faolligining oshishiga xizmat qiladi.

Qizg'in bahs-munozaralardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi o'qishda qabul qilindi.

### Shaffoflik qachon ta'minlanadi?

Qonunchilik palatasining shu yil 2-iyul kuni bo'lib o'tgan majlisida Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vaziri vazifasini bajaruvchi Sh. Hidoyatovga "Qurilish sohasining shaffofligini ta'minlash va qurilish ishlarini kuzatib borish uchun jamoatchilikka imkoniyat yaratish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida" Qonunchilik palatasining parlament so'rovi yuborilgan edi.

Unda fuqarolarga qurilayotgan obyektlar to'g'risida mustaqil ravishda axborot olish, noqonuniy qurilishlarni aniqlash, "Ogoh fuqaro" hamda "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimi elektron platformalari va geoportaldan foydalanish tizimining samaradorligini ta'minlash borasida olib borilayotgan ishlar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirishlar berish so'ralgandi.

Majlisda deputatlar mazkur parlament so'roviga yuborilgan javobni atroflicha ko'rib chiqdi.

Parlament so'rovi bo'yicha kelgan javobda ta'kidlanganidek, bugungi kunda fuqarolarga qurilayotgan obyektlar to'g'risida mustaqil ravishda axborot olish, noqonuniy qurilishlarni aniqlash, obyektlarda aniqlangan qoidabuzarliklarni qayd etish va ularni qurilish sohasidagi nazorat bo'yicha vakolatli organlarga yuborish imkonini beruvchi "Ogoh fuqaro" elektron tizimi yo'lga qo'yilgan. Foydalanuvchilar uchun qulaylik yaratish maqsadida "OneID" – Yagona identifikatsiya tizimiga integratsiya qilingan.

Deputatlar tomonidan ushbu tizim joylarda noqonuniy va sifatsiz qurilishlarni aniqlashda samarali jamoatchilik nazorati o'rnatishi urg'ulandi.

Majlisda parlament so'roviga javobda ko'tarilgan masalalar bo'yicha batafsil ma'lumot taqdim etilgani e'tiborga olinib, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirining javobi ma'lumot uchun qabul qilindi.

**"Xalq so'zi".**

---

## "Hukumat soati"

# QURILISH SOHASIDAGI SAVOLLARGA JAVOB OLINDI

*Oliy Majlis Qonunchilik palatasida O'zbekiston "Adolat" SDP fraksiyasi tashabbusi bilan navbatdagi "Hukumat soati" bo'lib o'tdi.*

Unda deputatlar "Shaharsozlik bo'yicha milliy standartlar, zamonaviy qurilish texnologiyalari, raqamlashtirish jarayonlari, shuningdek, sohadagi davlat nazoratini yanada kuchaytirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida"gi masalani muhokama qildi.

Kun tartibidagi ushbu mavzu yuzasidan deputatlarning savollariga Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vaziri vazifasini bajaruvchi Sh. Hidoyatov javob berdi.

Shuningdek, xalq vakillarining saylov okruglaridagi uchrashuvlari, aholi bilan muloqotlarida saylovchilar tomonidan ko'tarilgan dolzarb masalalar yuzasidan savollariga javoblar olindi.

Majlisda deputatlar tomonidan "Hukumat soati" kun tartibiga qurilish sohasiga oid dolzarb vazifalarning kiritilganligi o'z vaqtida va to'g'ri bo'lganligi qayd etildi.

Yaqinda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan "Seysmik xavfsizlikni ta'minlash tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi Qonun bilan shaharsozlikka oid qonunchilik talablarini buzganlik uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik kuchaytirilgani, mazkur qonun shaharsozlik faoliyati sohasida ko'payib borayotgan noqonuniy qurilishlarning oldini olishga, qurilishlar sifatini oshirishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Savol-javoblarga boy bo'lgan "Hukumat soati"da deputatlar shaharsozlik to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etish, xususan, qurilayotgan ko'p qavatli uylarda noqonuniy qo'shimcha qavatlar qurishning oldini olish, boshqaruv servis kompaniyalar va xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari mas'uliyati va javobgarligini oshirish, uy-joy massivlarida avtoturargohlar barpo etish bo'yicha tegishli taklif va tavsiyalar berdi.

Muhokama so'ngida kun tartibidagi masala yuzasidan parlament nazorati ta'sirchanligini yanada oshirishga kelishib olindi.

**"Xalq so'zi".**

---

**Joriy yilning 1-iyul holatiga ko'ra, chet el investitsiyasi ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 13 880 tani tashkil etdi.**

***G'ildirakning yaratilishi texnika taraqqiyotining ibtidosi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Avvaliga arava, keyinchalik temir yo'l va nihoyat, avtoulov uning asosida yaratilib, og'irimizni yengil, uzog'imizni yaqin qilayotgan ushbu harakatlanish vositalaridan foydalanish maxsus qoidalar bilan tartibga solinayotganiga ham yuz yildan oshib ketdi. Biroq har yili ming-minglab kishilar ushbu qoidalarga rioya etmaganligi sabab hayotdan ko'z yumayotgani ham bor gap. Millionlab odamlar nogiron bo'lib, to'shakka mixlanib qolmoqda. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra har yili mamlakatimizda uch mingga yaqin kishilar yo'l-transport hodisalari qurboni bo'lib, ularning 12 foizini bolalar va o'smirlar tashkil etayotgani achinarlidir.***

# MANMANLIK VA SHOSHQALOQLIK ORTIDAGI FOJIA



OGOHLIK

### Muammo faqat yo'lning holatiga bog'liq emas

E'tibor qilganmisiz, kattayu kichik trassalarda haydovchilar ro'parasidan kelayotgan hamkasbini "ko'z qisib" (faralarni yoqib-o'chirib) qarshingda radar yoki "GAI" bor, deya ogohlantirib o'tadi. Hushyor tortgan haydovchi tezlikni kamaytirib, xavfsizlik kamarini taqib oladi.

Yaqin o'tmishning bu "an'ana"sini haydovchilarning birdamligi sifatida qabul qilish ham mumkin. Har holda bundan ko'pchilik yomonlik axtarmaydi. Aslida, ushbu ogohlikka chorlov bilan qanchadan-qancha retsidiv qoidabuzarlar jarimadan qutulib qoladi. O'tib olgach, "temir ot"iga yana "qamchi tortadi". Ko'za esa har kuni sinavermaydi.

Oliy Majlis Senati a'zolarining o'rganishlarida aytilishicha, mamlakatimizda yo'l-transport hodisalarining qariyb yarmi yo'l harakati qoidalariga bepisandlik oqibatida ro'y berar ekan.

Shu o'rinda uzoqqa bormay joriy yilning 9-iyun kuni Navbahor – Nurota avtomobil yo'lida sodir bo'lgan yo'l-transport hodisasini esga olaylik. Unda "Gentra" haydovchisi o'zi bilan bir yo'nalishda ketayotgan "Damas" mashinasini quvib o'tmoqchi bo'lib, ro'parasidan harakatlanib kelayotgan "Onix" bilan to'qnashishi oqibatida shu avtomobilda bo'lgan bir oilaning 5 a'zosi, ya'ni 36 yoshli erkak, uning 58 yoshli onasi, turmush o'rtog'i, 2 yoshli o'g'li hamda 2 oylik qizi, shuningdek, "Gentra" haydovchisi vafot etadi.

Vaholanki, YTH sodir bo'lgan ushbu hududda quvib o'tishni taqiqlovchi yo'l belgisi o'rnatilgan. Boisi ma'lum masofada qarama-qarshi tarafdan kelayotgan transport vositasi ko'rinmaydi. Aynan mazkur hududda uch-to'rt yil avval shu kabi peshma-pesh to'qnashuv oqibatida g'ozg'onlik to'rt yigit YTH qurboni bo'lgan edi. O'sha hududda yo'lni bir-ikki metrga pasaytirish falokatlarning oldini olar, degan fikr xayolingizdan o'tgan bo'lsa, ajab emas. Biroq barcha muammo yo'lning holatida emas. Ishonmasangiz, Qalqonota qo'rg'onida istiqomat qiladigan onaxonning so'zlariga e'tibor bering.

– Qishlog'imizni kesib o'tgan katta yo'l yaqinda to'liq ta'mirlanib, kaftdek tekis bo'ldi, yoritish chiroqlari o'rnatildi, – deydi Mahkam aya. – Boshida judayam xursand bo'lgan edik. Lekin endi bolalarimiz ko'chaga chiqsa, yurak hovuchlab o'tiramiz. Bu yo'ldan ayrim mashinalar katta tezlikda o'tishni kanda qilmaydi. Yoki tun yarmidan oqqanda avtopoyga boshlanadi...

Haqiqatan ham, ayrimlar uchun avtoulov manzildan-manzilga yetib olish vositasi emas, o'zini ko'rsatib qo'yish manbaiga aylanib qolmoqda.

> **1-iyul kuni Xatirchi tumanida soatiga 142 kilometr tezlikda harakatlangan "BYD" rusumdagi avtomobil tagida qolib ketgan 9 yoshli qizcha shu kabi manmanlik, xudbinlik qurboni bo'ldi...**

Demoqchi bo'lganimiz, mamlakatimizda yo'llarning keng va ravonligini oshirish yuzasidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar ham harakat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan. Yo'l harakati qoidalariga oid belgilar yorqinroq aks ettirilayotir. Bu fuqarolarimizga yaratilgan qulaylik bo'lishi bilan birga, ularning xavfsizligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Biroq bu o'rinda gap yo'llarning tekis yoki notekisligida emas, aksincha, ayrim haydovchilarning yo'l harakati qoidalariga bepisandligi haqida bormoqda. Aks holda odamlar harakatlanish 30 km/soat etib belgilangan mahallalar ichidagi tep-tekis yo'llarda sun'iy to'siqlar o'rnatib olmasdi.

### Qoidabuzarlik kulfat keltiradi

Istiqlol yillarida mamlakatimiz jahonning avtomobil ishlab chiqaruvchi sanoqli davlatlari qatoridan o'rin oldi. Shu bois shahar va qishloqlarimiz yo'llarida yengil avtomashinalar va avtobuslar qatnovi sezilarli darajada ko'paydi. Albatta, o'z ulovingda manzilga betashvish, beminnat yetib olganga ne yetsin! Biroq aksariyat fuqarolarimiz xavfsizlik kamaridan foydalanishni xayoliga ham keltirmaydi.

Vaholanki,

> **O'zbekiston IIV Jamoat xavfsizligi departamenti yo'l harakati xavfsizligi xizmati ma'lumotlariga ko'ra yo'l-transport hodisalarida halok bo'lganlarning 96 foizdan ortig'i xavfsizlik kamarini taqmagan.**

Soha mutaxassislarining fikricha, agar orqada o'tirgan yo'lovchilar xavfsizlik kamarini taqishsa, oldingi o'rindiqlarda o'tirgan yo'lovchilarning ko'pchiligi avtohalokatda omon qolish, aks holda esa halok bo'lish ehtimoli yuqori. Mazkur tahlilni YHX xodimi haydovchiga aytib ogohlantirsa, u hech bo'lmaganda, malomatga qolishi turgan gap. Aslida esa xoh haydovchi bo'lsin, xoh yo'lovchi shu arzimas qoidabuzish orqali qaysidir xonadonga kulfat keltirayotganini bilmaydi, deb o'ylaysizmi?! Biladi, shunchaki, bo'yin yor bermaydi. O'zini kamsitilgandek, xavfsizlik kamari tortilsa, g'ururi toptalgandek his etadi.

Tahlillar (Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasidagi eshituv) shuni ko'rsatadiki, YTHlardagi ayanchli holatlarning 45 foizi haydovchilarning qoidalarni mensimasligi oqibatida sodir bo'larkan. Mamlakatimizda 2023-yilda yo'l-transport hodisalari tufayli 2 282 fuqaro halok bo'lganini inobatga olsak, demak, kamida ming kishi qoidabuzarlarning kasofati tufayli hayotdan erta ketgan.

Ikki yil avval repetitordan qaytayotgan o'n to'rt yoshli o'smir o'limiga sabab bo'lgan YTHni navoiyliklar hali-hamon esdan chiqargani yo'q. Mast haydovchi uni urib, qochib ketgach, o'spirin bir yarim soatcha o'lim bilan olishgan. Haydovchining dastlabki tergovda "Nima bo'pti, bir-ikki yil o'tirib kelaman-da", degan so'zlari ijtimoiy tarmoqlarga joylangach esa juda ko'plab izohlarda obunachilar unga oliy jazoni talab qilishgani rost.

> **Tahlillar shuni ko'rsatadiki, YTHlardagi ayanchli holatlarning 45 foizi haydovchilarning qoidalarni mensimasligi oqibatida sodir bo'larkan.**

Sud tomonidan haydovchiga nisbatan qonunchiligimizda belgilangan tartibda adolatli qamoq jazosi tayinlandi. O'zi ta'kidlaganidek, u o'sha muddatni o'tirib, qaytib ham kelar. Biroq bir oilaning farzandini endi qaytarib bo'lmaydi. Aksincha, o'sha kasofat ushbu oilaga kulfat eshiklarini ochdi – ota judolikni ko'tara olmadi, ona esa nogiron bo'lib qoldi.

Shukrki, oramizda bunday kasofatlar kam. Biroq ko'pga ozor yetkazib, ofat keltiruvchi kishilarga "ko'z qisib" himoya va rag'bat berayotganlar esa kulfat o'z darvozasidan mo'ralamaguncha buni bilmaydi.

### Ehtiyot bo'ling, bolalar!

E'tibor qilganmisiz, onalarimizning allasida allanechuk mung bor. Hazin ohangda ular farzandi kamoloti yo'lida yurtga tinchlik, xotirjamlik va farovonlik, elga osoyishtalik, insof va diyonat istab, samimiy tilaklar bildiradi.

Shu nuridiydaga kun kelib, ushbu farzandi bir nokasning shoshqaloqligi qurboni bo'lishi mumkinligi haqida so'zlab ko'ring-chi... Kamida "Og'zingdan chiqib, yoqangga yopishsin", degan gapni eshitasiz. Vaholanki, sizning so'zlaringiz bashorat emas, oddiy ogohlik, xavotir tartibida bo'lishi mumkin. Lekin baribir, eshitgan quloqqa yoqmaydi. Axir kuni kecha Urgutda avtohalokat qurboni bo'lgan uch yashar bolaga kim ham yomonlik sog'inibdi, deysiz.

Holat yuzasidan ma'lumot bergan Samarqand viloyati IIB EKMning xulosasiga ko'ra avtomashinaning rul boshqaruvi va ishchi tormoz tizimi soz holda bo'lgan. Shuningdek, viloyat IIB EKM xulosasida haydovchi mashinani favqulodda tormozlab, to'xtatib qolish yo'li bilan hodisaning oldini olish uchun texnik imkoniyatga ega bo'lganligi ko'rsatilgan.

Donishmandlar "Bu dunyoning barcha quvonchi bir go'dak labidagi nim tabassumga, barcha qayg'usi bola ko'zidagi bir tomchi yoshga arzimaydi", deyishadi. Bolalar – kuchli ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam. Shu sababdan ham statistik ma'lumotlarning aksariyati bolalarga nisbatan olinib, "jumladan, falon foizi bolalar" iborasiga tez-tez duch kelamiz.

Shu kuzatuv asosida nazar solsak,

> **mamlakatimizda 2024-yilning dastlabki besh oyida ro'y bergan YTH oqibatida 65 nafar bola nobud bo'lganini kuzatish mumkin.**

O'shandan buyon o'tgan ikki oy davomida bolalar bilan bog'liq yana qanchadan-qancha YTHning ayanchli oqibatlari guvohi bo'lmadik, deysiz. Afsuski, aksariyat yuqorida ta'kidlaganimizdek, shunchaki yo'l harakati qoidalarini mensimaslik tufayli sodir bo'lmoqda. Shu ketishda bo'lsa, "Ehtiyot bo'ling, bolalar!" chorlovini "Bolalar, ehtiyot bo'ling!" deyishga to'g'ri keladi.

### Sekin yurgan murodga yetar

Xabaringiz bor, Prezidentimizning 2022-yil 4-aprelda "Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash va o'lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilingan.

Ushbu hujjatda haydovchi va piyodalarning yo'l harakati qoidalariga rioya etish madaniyatini oshirish, har qanday qoidabuzarlik uchun jazo muqarrarligini ta'minlash hamda yo'l harakati qoidalari asoslarini bolalikdan singdirishni yo'lga qo'yish, amaliyotni maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumta'lim maktablarida joriy qilish – yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashning dolzarb yo'nalishlari etib belgilangan. O'tgan davr mobaynida mazkur vazifalarning ijrosini ta'minlash bo'yicha 6 ta normativ-huquqiy va boshqa hujjatlar qabul qilindi.

Afsuski, yo'l-transport hodisalari kamayib borishida sezilarli ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanish o'rniga ayanchli holatlar sovib ulgurmasidan yangisi odamlarni larzaga solmoqda. Kimdir jazo choralarini, yana birov haydovchilik huquqi berish talabini kuchaytirish taklifini ilgari surmoqda. Biroq dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, qonunga itoatkorlikni ta'minlashda qo'rquvdan ko'ra huquqiy madaniyat yuksakligi, oddiy insoniy munosabatlar ustuvorligi yaxshi samara beradi.

Qolaversa, yuqorida ta'kidlanganidek, yo'l-transport hodisalarining 45 foizi qoidalarni mensimaslik tufayli ro'y bergani holda, ularda tajribasizlik omili bor-yo'g'i 10 foizni tashkil etadi.

To'g'ri, yo'llarda inson hayoti, xavfsizligini asrash – ichki ishlar organlari xodimlarining bosh maqsadi. Biroq yuqoridagi misollardan xulosa shuki, yo'l harakati qatnashchilarining huquqiy madaniyatini oshirish nafaqat soha xodimlari, balki barchaning birdek vazifasi bo'lishi zarur. Aks holda, yo'l-transport hodisalarining oqibati hayotimizga tahdid solaveradi.

Unutmaylik, qonunlarni hurmat qilib, qoidalarga rioya etuvchilarning yo'llari doimo ravon bo'ladi. Niyatimiz – uydan chiqqan har bir inson borki, talablarga amal qilib, uyiga, oilasi bag'riga sog'-salomat qaytsin! Bu xayrli ishga hammamiz birgalikda kamarbasta bo'laylik.

**Temur ESHBOYEV**
**("Xalq so'zi").**

## YANGILIKLAR xabarlar TAFSILOTLAR

### "Murojaatdan – daromadga"

*Denov tumanidagi "Dendrariy" ekobog'ida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Xalq qabulxonasining "Murojaatdan – daromadga" loyihasi doirasida Surxondaryo viloyatidagi 505 nafar ishsiz xotin-qizga zamonaviy tikuv mashinalari topshirildi.*

Shu munosabat bilan tashkil etilgan tadbirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi o'rinbosari – Prezident Xalq qabulxonasi rahbari Ulug'bek Muhammadiyev ishtirok etib, mamlakatimizda bandlik va aholi daromadlarini oshirish borish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanganini ta'kidladi.

Tantanali tadbir davomida Uzun, Denov, Sariosiyo va Oltinsoy tumanlarining har biriga yuztadan, Sho'rchi tumaniga 105 ta tikuv mashinasi topshirildi.

### Tadbirkorlar bilan ochiq muloqot



*Qoraqalpog'iston Respublikasi Tuproqqal'a tumani hokimligida Xorazm viloyati prokurori M. Ahmedovning tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti bo'lib o'tdi.*

Unda tadbirkorlar tomonidan, asosan, imtiyozli kreditlash, yer va noturar obyektlar kadastri masalalarida murojaatlar bildirildi. Har bir masalani qonuniy hal etish yuzasidan mutasaddilarga aniq topshiriqlar berilib, ijrosi prokuror nazoratiga olindi.

O'z navbatida, tadbirkorlarga yaratilgan sharoitga munosib ish o'rni yaratish va ishsizlikka birgalikda barham berish zarurligi qayd etildi.

### Intellektual logistikani o'qitish platformasi

*Xitoyning Tyanzin dengizchilik kolleji hamda Toshkent davlat transport universiteti rahbariyati o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi. Unda Luban ustaxonasining ikkinchi bosqichi – obyektni qurish loyihasini amalga oshirish bilan bog'liq masalalar muhokama etildi.*

Uchrashuv yakunida qiymati 69 ming AQSh dollariga teng bo'lgan "Intellektual logistikani o'qitish platformasi" nomli ilmiy-amaliy laboratoriya uskunalarini O'zbekiston tomoniga topshirish bo'yicha kelishuv imzolandi.



### Xalqaro haykaltaroshlik simpoziumi

*O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligida "Toshkent – 2024" III xalqaro haykaltaroshlik simpoziumining ochilish marosimi bo'lib o'tdi.*

Tadbirda qayd etilganidek, simpoziumda 20 nafar xorijlik va 6 nafar mahalliy haykaltarosh qatnashyapti. Tajribali, mahoratli haykaltaroshlar tomonidan "Haykaltaroshlik va atrof-muhit" mavzuida toshdan ijod asarlari yaratiladi. Yosh ijodkorlar uchun mahorat darslari, amaliy mashg'ulotlar tashkil etiladi, "Ustoz – shogird" an'analari namoyish qilinadi.



**"Xalq so'zi".**

**An'anaga muvofiq, shu oyda "Ustozlar milliy forumi" o'tkaziladi.**

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-842. 14 275 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

ISSN 2010-6785

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir F. Bozorov.
Musahhih S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'zA yakuni — 22.15 Topshirildi — 01.05 1 2 3 4 5 6